

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SHODIYEV MUXIDDIN BERDIMURATOVICH**

**INTERGATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING  
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**Avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по**

**педагогическим наукам**

**Contens of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on**

**pedagogical sciences**

**Shodiyev Muxiddin Berdimuratovich**

Integrativ yondashuv asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish..... 3

**Шодиев Мухиддин Бердымуратович**

Совершенствование методики развития коммуникативных компетенций студентов на основе интегративного подхода ..... 25

**Shodiev Mukhiddin Berdimuratovich**

Improving the methodology for developing students' communicative competences based on an integrative approach ..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.11.2024.Ped.26.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**SHODIYEV MUXIDDIN BERDIMURATOVICH**

**INTERGATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING  
KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH  
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent -2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped4921 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertasiya Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)) hamda “ZiyoNET” axborot-ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xalikov A‘zam Abdusalomovich**  
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Isakulova Nilufar Janikulovna**  
Pedagogika fanlari doktori, professor

**Badelbayeva Yulduzbonu Orifjonovna**  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertasiya himoyasi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Dsc.03/30.11.2024.Ped.26.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86; e-mail: [tdpu.kengash@edu.uz](mailto:tdpu.kengash@edu.uz)).

Dissertasiya bilan Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, CHilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11; faks: (+99871) 276-80-86.

Dissertasiya avtoreferati 2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**Sh.A.Abdullayeva**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor.

**N.M.Ahmedova**  
Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.f.d(PhD), dotsent.

**Sh.A.Atadjanova**  
Ilmiy daraja beruvchi  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, p.f.d(DSc), dotsent

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili professional ta'limda yetakchi o'rin egallaydi, chunki u xalqaro muloqot, kasbiy faoliyat va ilmiy hamkorlik vositasiga aylangan. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'qitish metodikalari integrativ, kommunikativ va madaniyatlararo yondashuvlar asosida doimiy yangilanib va takomillashib boradi. Bu jarayon talabalarning til ko'nikmalarini amaliy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini oshirish, ularni global ish va ilmiy maydonlarda samarali muloqotga tayyorlashga xizmat qiladi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasida: "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish"<sup>1</sup> strategik vazifa sifatida qabul qilingan va shu borada xorijiy tillarni kommunikativ kompetensiya orqali o'qitish va uning sifatini oshirishda xalqaro standartlarni qo'llash, ta'lim va innovatsiyaning uyg'unligini ta'minlash, kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirish, shuningdek, talabalarda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga qaratilgan tadqiqotlar faol olib borilmoqda. Shu bilan birga, turli ta'lim texnologiyalarining o'quv jarayonining samaradorligiga ta'siri batafsil o'rganiladi. Shu sababli rivojlangan mamlakatlarda AQSh, Rossiya, Germaniya, Frantsiya, Xitoy, Koreya kabi davlatlarda oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini samarali rivojlantirish uchun modul ta'limi, flipped classroom (teskari sinf), master-klasslar, vebinarlar, interaktiv va loyiha asosidagi metodlar, shuningdek virtual ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanish zarur hisoblanadi. Ayniqsa intensiv o'quv texnologiyalarini joriy etish, pedagogik va axborot texnologiyalari yordamida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amaliy faoliyat olib borish, shuningdek bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiqdir.

Respublikamizda so'nggi yillarda zamonaviy talablar asosida ilg'or xorijiy tajribalarga asoslangan holda oliy ta'lim muassasalari talabalarining muntazam kommunikativ muloqoti o'sishida interaktiv metodlar, tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion loyihalar, mustaqil ta'lim olishni kengaytirishni nazarda tutuvchi texnika va integrativ yondashuvdan foydalangan holda malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, ta'lim mazmuni va sifatini xalqaro darajaga ko'tarish hamda uning moddiy-texnik bazasini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratildi. Shunga ko'ra, talabalarni tayyorlash sifatini oshirishda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga oid yondashuvlarni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Xususan, 2021-yil 19-mayda PQ-5117-son qabul qilingan "Chet tillarini o'rganishni ommalashtirish va o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"<sup>2</sup> gi Prezident qarori til o'rganishning dolzarbligini yana bir bor tasdiqladi. Mazkur qarorda chet tillarini o'qitishda xalqaro standartlarga mos

<sup>1</sup> Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

metodikalarni joriy etish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish, xorijiy til muhitini yaratish, shuningdek, talabalarning muloqotga kirishish ko'nikmasini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida", 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi VM-610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini rivojlantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarini o'qitish masalalari: D.Djumanova, G.T.Maxkamova, T.K.Sattarov, S.S.Saydaliyev, D.U.Xoshimova, O'.X.Xoshimovlar, integrativ yondashuv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari: F.Sh.Alimov, N.M.Axmedova, M.X.Gulyamova, M.B.Mirkasimova, D.R.Pulatova, K.Risqulova, D.X.Saydazimova, Z.Sh.Yariyevalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida yoritilgan.

MDH olimlaridan B.G.Ananayev, M.S.Burgin, V.V.Krayevskiy, V.L.Matrosov, Ye.I.Passov, G.K.Selevko, V.A.Slasteninlar tomonidan pedagogik innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish va kommunikativ kompetensiyani chet tilini o'qitishdagi ahamiyati bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishgan. Oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik muloqot xususiyatlari masalalari bo'yicha Ye.L.Yeliseyeva, T.V.Milyushenko, N.Yu.Pavlova, Ye.P.Ribina, L.K.Salnaya, I.G.Trofimova va boshq. tahlil qilgan.

Jahon tilshunosligida va korpus lingvistikasini rivojlantirish bo'yicha R.Reppen, G.Leech, S.Bernardini, S.Norman, G.Simon, S.Hunstonlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston milliy pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika

texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishga integrativ yondashuvni qo'llash.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash;

integrativ yondashuv asosida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ishlab chiqish;

integrativ yondashuv asosida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

integrativ yondashuv asosida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** tilga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasasining 1–2-kurslarida ingliz tilini mutaxassislik sifatida o'qitish jarayonidir, tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston milliy pedagogika universiteti, Qo'qon davlat pedagogika universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti talabalaridan 475 nafari jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish mazmuni, usullari, shakllari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida mavzuga oid pedagogik, psixologik, tilshunoslik va oliy ta'lim to'g'risidagi o'quv-me'yoriy hujjatlarni (davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va dasturlari), ingliz tili metodikasiga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish; pedagogik kuzatuv, induktiv va deduktiv metodlar, tajriba-sinov ishini o'tkazish va monitoring, olingan ma'lumotlarni matematik va statistik qayta ishlash usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari diskursiv va ijtimoiy-madaniy muhitda nutqiy etiket hamda madaniy konnotatsiyalarni lingvopragmatik integratsiya qilish orqali nutqiy faoliyatni kognitiv-pragmatik strategiyasiga muvofiq modellashtirish va mazmuniy interaktivlikni kross-muloqot lokalizatsiyasi asosida ta'minlashga ko'ra aniqlashtirilgan;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli diskursga mos interaktiv o'quv jarayonida kognitiv va reflektiv faoliyatni faollashtiruvchi intersemiotik materiallardan foydalanishga muvofiq lingvistik-semantik tarkibni multimodal kompetensiyalar orqali affilyativ ehtiyojlarga ko'ra aniqlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi shaxsning muloqot faolligini oshiruvchi raqamli kommunikativ muhit va ta'limiy texnologiyalar integratsiyasiga ko'ra madaniy kontekstda fikrlash va dialogik muloqotni yuritish

malakalarini sinxron rivojlantirishning funksional mazmunini nutq variativligiga bog‘liq sotsiolingvistik ko‘nikmalar orqali integratsiyalash asosida takomillashtirilgan; talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi muloqotga kirishishda lingvistik aniqlikning talab etilishiga ko‘ra til birliklari semantik harakteri va ma‘no tarmoqlari o‘rtasidagi funksional-stilistik muvofiqlikni o‘quv materiali konseptual birligining epistemologik izchilligiga ko‘ra belgilash asosida oshirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

oliy ta‘lim muassasalari talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasining rivojlanish darajasi bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqilgan;

60110900-Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili) yo‘nalishi uchun “Practical English” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublikamiz va halqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materillari to‘plami, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar va ular haqidagi retsenziyalar, respondentlar bilan o‘tkazilgan savol-javoblar; intervyular, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, ularning natijasi sifat va samaradorligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati talabalarning integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda ingliz tilini o‘qitish jarayoniga tatbiq qilingan interaktiv metodlar samarasi o‘quv amaliyotida aprobatatsiyadan o‘tib, o‘zining samarali natijaviyligi asosida didaktik jarayonlarga tatbiq qilishda va tadqiqot davomida ishlab chiqilgan dastur, tavsiyalardan qo‘llanma tayyorlash, hamda, pedagog kadrlarni tayyorlash jarayoni mazmunini takomillashtirishda foydalanilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarning integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishga qaratilgan diagnostik so‘rov usullarini joriy etishda, ta‘lim jarayonida interfaol ta‘lim metodlari va texnologiyalari vositasida talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda, interfaol ta‘lim muhitini yaratishning informatsion-metodik tizimini takomillashtirish hamda talabalarning kreativ metodikasini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Integrativ yondashuv asosida talabalarining kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari diskursiv va ijtimoiy-madaniy muhitda nutqiy etiket hamda madaniy konnotatsiyalarni lingvopragmatik integratsiya qilish orqali nutqiy faoliyatni kognitiv-pragmatik strategiyasiga muvofiq modellashtirish va mazmuniy interaktivlikni kross-muloqot lokalizatsiyasi asosida ta‘minlashga ko‘ra aniqlashtirishga doir takliflar “Practical English” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy

nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti kengashining 2025 yil 7-iyuldagi 22-01-146/22-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning lingvistik, madaniy, va nutqiy faoliyatlarni integratsiyasi imkoniyatlari aniqlangan;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish modeli diskursga mos interaktiv o‘quv jarayonida kognitiv va reflektiv faoliyatni faollashtiruvchi intersemiotik materiallardan foydalanishga muvofiq lingvistik-semantik tarkibni multimodal kompetensiyalar orqali affilyativ ehtiyojlarga ko‘ra aniqlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Practical English” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti kengashining 2025 yil 7-iyuldagi 22-01-146/22-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning modeli reflektiv va diskursga asoslangan o‘qitish bosqichlarini uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi shaxsning muloqot faolligini oshiruvchi raqamli kommunikativ muhit va ta’limiy texnologiyalar integratsiyasiga ko‘ra madaniy kontekstda fikrlash va dialogik muloqotni yuritish malakalarini sinxron rivojlantirishning funksional mazmunini nutq variativligiga bog‘liq sotsiolingvistik ko‘nikmalar orqali integratsiyalash asosida takomillashtirishga doir takliflar “Practical English” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti kengashining 2025 yil 7-iyuldagi 22-01-146/22-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi shakl, metod va vositalar asosida ishlab chiqilgan;

talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligi muloqotga kirishishda lingvistik aniqlikning talab etilishiga ko‘ra til birliklari semantik harakteri va ma’no tarmoqlari o‘rtasidagi funksional-stilistik muvofiqlikni o‘quv materiali konseptual birligining epistemologik izchilligiga ko‘ra belgilash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Practical English” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti kengashining 2025 yil 7-iyuldagi 22-01-146/22-sonli dalolatnomasi). Natijada, talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi baholash mezonlari asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusiga bo‘yicha jami 9 ta ilmiy-uslubiy ishlar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 2 ta maqola xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertasiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertasiya hajmi 142 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobda talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik muammolari, pedagogik jarayonni jadallashtirishda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirishda integrativ yondashuvga tayanish imkoniyatlari o'rganilgan.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti o'quv fanlari, bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarida ta'lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilganligini ta'minlashi lozimligiga alohida ahamiyat berilgan. Albatta, ushbu qo'yilgan talablar oliy o'quv yurtlarida ta'lim – tarbiya jarayonini yuqori darajaga ko'tarish, o'qitishni yangi metodlar asosida amalga oshirish, talabalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini, kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish va bilim darajasini oshirish kabi vazifalar kasbiy mahorat orqali sifatli darajada bajarishini taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim muammolari so'nggi vaqtlarda pedagogika fanida keng tadqiq etilmoqda. Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishning nazariy qoidalarini ishlab chiqishga xorijiy va mahalliy olimlar E.Zeer, Yu.K.Babanskiy, I.A.Zimnyaya, S.Ye.Shishov, T.P.Popova, Ch.Velde, N.A.Muslimo, A.R.Xodjaboyev, K.Dj.Riskulova va D.R.Pulatova katta hissa qo'shishgan.

S.B.Shishov va V.A.Kalney kompetensiyani ta'lim tufayli egallangan bilim, tajriba, moyilliklarga asoslangan umumiy qobiliyat sifatida ta'riflashga urg'u beradi. I.A.Zimnyaya kompetensiyani subyektlar shaxsiy faoliyatining qadriyatli-mazmunli, xulq-atvorga oid, motivatsiyali, hissiy-irodaviy, kognitiv natijalarini yaratishga ko'maklashadigan yangi tuzilmalar: bilim, qadriyatlar, munosabatlar va sh.k. tizimi sifatida talqin qiladi. T.P.Popovanning tadqiqot ishida «kompetensiya» va «kompetentlilik» terminlari o'rtasidagi farqlarni ochib berishga harakat qilingan. Shu bilan bir qatorda, kommunikativ kompetensiyaning maqsadi, uning turlari, strukturasi va darajalari guruhlarga ajratilgan va ilmiy asoslab berilgan. A.R.Xodjaboyevning fikricha, kompetent nuqtayi nazaridan yondashish ta'limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi.

Kompetentlilik yondashuviga asoslangan holda biz kommunikativ kompetensiyani yakuniy maqsadini belgilaymiz va nutq madaniyatini o'qitishning aniq natijasiga (mahsuliga) yo'naltiramiz. Kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi

ingliz tilida muloqot qilishdagi nutq ko'nikmalarini egallash, shuningdek, Xorijiy til va adabiyot (ingliz tili)yo'nalishi talabalariga ingliz tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishning shart-sharoitlari bo'lib hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot doirasida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda amaliy yo'nalish, faollik va shaxsiy yo'nalishni, chet tili fanining o'ziga xos xususiyatlarini, nutq faoliyati turlarini va uni talabalarga o'qitish xususiyatlarini hisobga olgan holda kompetensiyaga asoslangan ta'lim mazmunida umumiy va individualni ajratish uchun biz "kompetensiya", "kompetentlik", "kommunikativ kompetensiya" va tadqiqot ishi bevosita integratsiya jarayoniga bog'liqligi sababli "Integrativ yondashuv" tushunchalarini ajratamiz:

kompetensiya - shaxsning muayyan sohada bilim, ko'nikma va malakalarni hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir;

kompetentlik - shaxsda mavjud bo'lgan aniq bilim, ko'nikma va malakalarning jamlanmasidir. U o'z ichiga bilim darajasi, tajriba va ularni amalda qo'llash qobiliyatini oladi. Masalan, ingliz tilini yaxshi tushunib, uni to'g'ri va erkin ishlata olish bu kompetentlik belgisidir;

kommunikativ kompetensiya – bu talabaning ingliz tilidagi til birliklarini mazmunli, vaziyatga mos va madaniy jihatdan to'g'ri qo'llab, real muloqot jarayonida samarali o'zaro ta'sirga kirisha olish qobiliyatidir. U lingvistik, pragmatik, diskursiv va sotsiokultural bilimlarning integratsiyasi asosida fikrni aniq, izchil va kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan tarzda ifodalashni ta'minlaydi;

integrativ yondashuv – til o'qitishda bir nechta metod va yondashuvlarni uyg'unlashtirib, talabalarni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan yondashuvdir. Bunda grammatika, leksika, tinglab tushunish, yozish, o'qish va gapirish kabi ko'nikmalar birgalikda o'rgatiladi.

Mualliflik yondashumizga ko'ra kommunikativ kompetensiya – kommunikativ kompetensiya va integrativ yondashuv uyg'unligida til o'rganish jarayoni o'quvchi/talabaning real hayotiy vaziyatlarda samarali muloqot qila olishini ta'minlashga qaratilgan, barcha til ko'nikmalarini (tinglash, o'qish, yozish, gapirish) bir-biriga bog'langan holda rivojlantirishga asoslangan o'qitish yondashuvidir. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat grammatik va leksik bilimlarni egallaydi, balki ularni madaniy, ijtimoiy va kontekstual holatlarda mos ravishda qo'llashni ham o'rganadi.

O'qitishning integrativ yondashuv asosida o'qitilayotgan talabada nafaqat qisqa muddatlarda kompetensiyalarni shakllantirilishiga, balki talabaning ikkinchi tilga oid kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida psixologik muammolarni yengib o'tishga mo'ljallangandir. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishda bir qancha qiyinchiliklar aniqlandi, bular quyidagilardan iborat:

muloqotga oid qiyinchiliklar, uyalish, qo'rquv, so'z boyligining yetarlicha shakllanmaganligi;

mazmunga doir qiyinchiliklar;

nutqiy idrok qilishning shart-sharoitidagi qiyinchilikla;

nutq shakliga oid qiyinchiliklar;

tilshunoslik nuqtayi nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar;

audio matn tuzilishiga oid qiyinchiliklar.

Talabaga kommunikativ kompetensiyani takomillashtirishda duch keladigan qiyinchiliklarni e'tirof etishdan maqsad, ularning oldini olish choralari ko'rishdir. Qiyinchiliklar mehnat va vaqt talab qiladi hamda maxsus mashqlarni bajarish zaruriyatini tug'diradi. Qiyinchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yo'li bilan ta'lim jarayonini jadallashtirish va o'qitishning eng maqbul metodikasini ishlab chiqarishga muvaffaq bo'lishi mumkin. Natijada esa ta'lim jarayonida texnologik (tamoyillar, shart-sharoitlar, mazmun, shakl, metod va vositalar) va zahiraviy (mahsuldor faollik, intensiv ishchanlik va boshqalar) imkoniyatlarga nazariy-metodologik ehtiyoj paydo bo'ladi.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari zamonaviy ta'lim jarayonida diskursiv hamda ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, nutqiy etiket unsurlari va madaniy konnotatsiyalarni lingvopragmatik integratsiya orqali o'qitish talabalarning nutqiy faoliyatini kognitiv-pragmatik strategiyalar asosida modellashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv muloqot jarayonining mazmuniy interaktivligini oshiradi, turli madaniy kontekstlar bilan ishlashda kross-muloqot lokalizatsiyasini ta'minlaydi hamda o'quvchi shaxsining kommunikativ tajribasini kengaytiradi.

Nutqiy etiket, madaniy ramzlar, ijtimoiy rollar va konnotativ ma'no qatlamlarini birlashtirib o'qitish nafaqat tilshunoslik, balki pedagogik pragmatika nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Chunki talaba diskursni nafaqat grammatik jihatdan, balki madaniy moslik, muloqot odobi, ijtimoiy munosabatlar tizimi orqali idrok etadi. Shu bilan birga, bunday integratsion model kommunikativ kompetensiyaning ichki mexanizmlarini — nutqni rejalashtirish, tinglovchiga mos strategiya tanlash, kontekstni interpretatsiya qilish qobiliyatlarini uyg'unlashtiradi.

Mazkur yondashuv ilmiy adabiyotlarda ham o'z aksini topgan. Masalan, ingliz tadqiqotchisi H.S.Oatey madaniy konnotatsiyalar va ijtimoiy muvofiqlikni "muloqotning pragmatik muvaffaqiyati uchun asosiy omil" deb baholab, nutqiy etiketni kontekstga yo'naltirilgan strategik vosita sifatida talqin qiladi. Rus tilshunosi V.V.Krasnyx esa kognitiv-pragmatik modellashtirish jarayonida "madaniy kod, milliy mentalitet va diskursiy signal"larning talaba kommunikativ kompetensiyasi shakllanishidagi yetakchi rolini ta'kidlaydi.

Shu nuqtai nazardan, nutqiy etiket va madaniy konnotatsiyalarni lingvopragmatik integratsiya qilish orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish talabaning nutqiy faolligini oshirish, uning muloqot jarayonida strategik moslashuvchanligini kuchaytirish va mazmuniy interaktivlikni ta'minlashda samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

J.J.Jalolov, G.T.Maxkamova, N.M.Ahmedova, M.X.Gulyamova, D.R.Pulatova va D.X.Saydazimovalar chet tilini o'qitishning asosiy maqsadini chet tilining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish sifatida ko'radi, ular ona tilida so'zlashuvchilar bilan shaxslararo va madaniyatlararo muloqot qilish qobiliyati va tayyorligi sifatida belgilaydilar.

MDH olimlaridan V.V.Safonovanning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya nafaqat kommunikativ bilim, ko'nikma va malakalarni, balki chet tilidagi muloqot vaziyatlarida harakat qilish va aloqaning adekvat strategiyalari,

uslublari va usullarini tanlashga yordam beradigan qobiliyatlarni ham nazarda tutadi. Kommunikativ kompetensiya mazmunida R.P.Milrud va I.R. Maksimova fikricha, talabalarning chet tilidagi muloqotga tayyorligini ko'rish mumkin. Barcha tadqiqotlarda chet tilining kommunikativ kompetensiyasining ko'p komponentli xususiyatiga ham alohida e'tibor beriladi. Shu sababli, bu aniq tuzilgan kommunikativ model bo'lib, N.D.Galskova ta'kidlaganidek, o'zaro bog'liq komponentlar to'plamidan iborat – subkompetensiyalardir deb ta'kidlab o'tishgan.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish chet tilida samarali muloqot qila olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan murakkab va bosqichma-bosqich jarayondir. Bu jarayon pedagogik jihatdan interaktiv metodlarga, psixologik jihatdan esa talabalarni faollashtirish, ularning ichki motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga tayanadi. Shuning uchun ham bu kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining metodik yondashuvi bilan bir qatorda, talabalar shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, mazkur jarayon o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ega bo'lib, ular talabalarning til o'rganishdagi faol ishtiroki, mustaqil fikrlashi va kommunikativ vazifalarni hal qilishda ishtirok etishlariga xizmat qiladi(1-jadval).

### 1-jadval

#### Kommunikativ kompetensiyaning pedagogik-psixologik xususiyatlari


Pedagogik-psixologik xususiyatlar	Tasnifi
Individga yo'naltirilgan yondashuv	Har bir talabaning psixologik tayyorgarligi, til o'rganishdagi ehtiyojlari, qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlari hisobga olinadi.
Muloqotga tayyorlikni rivojlantirish	Talabalar real muloqotda qanday qo'llashni ham o'zlashtirishlari kerak. Bu esa psixologik jihatdan ochiqlik, ijtimoiy kompetensiya va o'z fikrini ifodalash malakalarini talab qiladi.
Emotsional intellekt va til o'rganish	Emotsional barqarorlik, o'z-o'zini anglash, til o'rganishda muhim psixologik omillardan biridir
Reflektiv fikrlash va o'z-o'zini baholash	Talabalarning o'z til bilimlariga va kommunikativ faoliyatlariga tanqidiy yondashuv bilan qaray olish qobiliyatini rivojlantirish zarur.
Kontekstual va madaniyatlararo o'rganish	Til madaniyat bilan uzviy bog'liq. Talaba boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qila olish qobiliyatini ham o'zlashtiradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida talabalarning nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, kommunikativ kompetensiya – samarali muloqot qilish qobiliyati – har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishda asosiy omillardan biridir. Shu bois, ta'lim jarayonida integrativ yondashuvni qo'llash orqali talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va tatbiq etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlarni kontseptual tahlil qilish lingvodidaktik diskursda I.A.Zimnyaya "integrativ yondashuv" tushunchasining ko'p qirraligini aniqlaydi. Ba'zi tadqiqotchilar til aspektlarini boshqa fanlarning mavzuli mazmuni bilan integratsiyalashga e'tibor qaratadilar. A.Leontyev boshqalar integrativlikni nutq faoliyatining reseptiv (qabul qiluvchi) va produktiv (yaratuvchi) turlari o'zaro bog'liqligi sifatida tushunadi. A.A.Mirolubov Yana bir yo'nalish kommunikativ va ijtimoiy-madaniy elementlar sinteziga e'tibor qaratadi. M.X.Gulyamova o'z tadqiqotlarida kommunikativ

yondashuvga urg‘u berib, talabalarning chet tilida erkin muloqot qilish malakasini rivojlantirish, real kommunikativ vaziyatlarda tilni to‘g‘ri va samarali qo‘llash muhimligini asoslab bergan. U integrativ yondashuvning til orqali muloqotga yo‘naltirilganligini ko‘rsatadi. N.M.Ahmedova esa kasbiy tayyorgarlik nuqtai nazaridan chet tilini o‘qitishda integrativ yondashuvni qo‘llagan bo‘lib, bu yondashuv talabalarning kelajak kasbiy faoliyatida tilni amaliy qo‘llay olish kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. G.O.Maqsudova esa kognitiv yondashuv asosida integrativ o‘qitishning aqliy faoliyat, tafakkur va tushunish jarayonlariga ta’sirini o‘rganib, chet tilini o‘zlashtirishda bilimlarni ongli, faol va chuqur o‘zlashtirishni ta’minlashini ilmiy asoslagan.

Bizning tadqiqotimizda integrativ yondashuv ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ, lingvomadaniy va axborot-texnologik tarkibiy qismlarning tizimli uyg‘unligi sifatida talqin qilinadi(1-rasm).



**1-rasm. Integrativ yondashuv jarayoni**

Ingliz tilini o‘qitishda integrativ yondashuv asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish til o‘rgatish jarayonini kommunikativ, lingvomadaniy va axborot-texnologik komponentlar asosida bir butun tizim sifatida tashkil etishdir. Ushbu yondashuv talabalarda tilni lingvistik jihat bilan birgalikda madaniy, ijtimoiy va texnologik kontekstda to‘g‘ri va samarali qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, integrativ yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Bu esa ingliz tilini zamonaviy, hayotga yaqin va amaliy yo‘nalishda o‘qitishning muhim pedagogik asoslaridan biridir.

Dissertatsiyaning “**Integrativ yondashuv asosida talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni takomillashtirishning metodik tizimi**” deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish mazmuni, kommunikativ kompetensiyani modellashtirish jarayoni va talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda interaktiv metod, shakl va vositalar tahlil qilingan.

Hozirgi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida integrallashtirish jarayoni davom etayotgani, ishbilarmonlik aloqalari va xalqaro diplomatik munosabatlarda ingliz tilida ma’lumotlarni tushunish, fikr almashish va samarali muloqot qilish qobiliyatining oshib borishi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishni dolzarb va zarur masalaga aylantirmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning ingliz tilidagi

tinglash, soʻzlash, oʻqish va yozish koʻnikmalarini birlashtirib, ularni real professional va madaniy kontekstlarda qoʻllashga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa ularni global ish va ilmiy muhitda samarali muloqot qiladigan, lingvistik va sotsiokultural jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyada qoʻllaniladigan mashqlar tizimiga toʻrtta kichik tizimdagi mashqlar kiradi:

tinglash kompetensiyasini rivojlantirishga oʻrgatadigan mashqlar;

yozish kompetensiyasini rivojlantirishga oʻrgatadigan mashqlar.

oʻqish kompetensiyasini rivojlantirishga oʻrgatadigan mashqlar (tanishib oʻqish, oʻrganib oʻqish, koʻz yugurtirib oʻqish - Scanning, Scimming, Speed reading);

gapirish kompetensiyasini rivojlantirishga oʻrgatadigan mashqlar.

Zamonaviy tadqiqotlarda koʻrsatilishicha, til koʻnikmalarining integratsiyasi ham talabalar, ham oʻqituvchilar uchun foydalidir, chunki u oʻqituvchilarni oʻquv faoliyatini xilma-xil qilishga ilhomlantiradi, talabalar esa oʻrganilayotgan tilni erkin, jonli va tabiiy ravishda qoʻllashga, fikrlarini ifodalash qobiliyatini yaxshilashga va tilni qoʻllashda koʻproq dadillik qilishga undaydi. Bularning barchasi oʻquv jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, xorijiy tilni oʻrganayotgan talabalar ingliz tilidagi bilimlarini va uni real muloqotda qoʻllash kompetensiyalarini rivojlantirishlari uchun integrativ yondashuvni tatbiq etish muqarrardir.

Toʻrtta asosiy til koʻnikmasi (tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish) bu til orqali muloqot qilishning usuli yoki shaklidir. Inson biror tilda muloqot qilganida, u har doim bu koʻnikmalar kombinatsiyasidan foydalanadi. Tinglab tushunish jarayoni audio yoki audiovizual materiallar bilan boyitilishi mumkin, gapirishga fonetik koʻnikmalar, grammatik materialni rivojlantirish va faollashtirish kiritiladi, yozishdagi mashgʻulotlar esa grammatik materialni boshqa fanlar boʻyicha oʻrganilgan bilimlar bilan boyitadi. Oʻqish esa leksik materialni oʻz ichiga oladi.

Til koʻnikmalarini integratsiyalashgan tarzda oʻrgatishda mazmun (yoki topshiriq) va faoliyat turlari mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etilishi lozim: dastlab eng oddiy jihatlar, keyin esa murakkabroq elementlar berilishi kerak. Til koʻnikmalari dars yoki darslar ketma-ketligida izchil va bir butun holda oʻzaro bogʻliq boʻlishi zarur — bu yondashuv materialni samarali oʻzlashtirishni taʼminlaydi.

Agar guruhda til boʻyicha tayyorgarligi turlicha boʻlgan talabalar boʻlsa, oʻrganilayotgan materialni differensial tarzda taqdim etish mumkin: kamroq tayyorgarlikka ega talabalar uchun mashqlar yengilroq boʻlishi mumkin, biroq bunda ham tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish koʻnikmalariga alohida eʼtibor qaratilishi zarur.

Mahalliy metodist olimlar fikricha, hozirgi bosqichda chet tilini oʻqitishda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish zarurati eng muhim maqsadlardan biri sifatida qaraladi. Bu esa jamiyatning madaniyatlararo muloqotga qodir boʻlgan, rivojlangan polimadaniy shaxslarni tayyorlash ehtiyoji bilan bogʻliq. Shuningdek, chet tili aniq taʼlimiy vazifalarni hal etishga ham xizmat qilishi kerak, masalan, chet tilidagi axborotni tushunish orqali talabalarning bilimini chuqurlashtirish. Bunda esa

kommunikativ kompetensiyaning asosiy komponentlari faoliyat ko'rsatadi; ular 2-rasmda ko'rsatilgan.




**2-rasm. Kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari**

Kommunikativ kompetensiya til orqali samarali muloqot qilish qobiliyati bo'lib, u bir nechta asosiy komponentlarning uyg'unligidan tashkil topadi. Til (lingvistik) kompetensiya grammatik, leksik va fonetik bilimlarni o'z ichiga oladi va muloqotning til asosini tashkil etadi. Nutq kompetensiyasi esa ikki qismdan iborat bo'lib, diskursiv kompetensiya mantiqiy va izchil fikr bildirishga xizmat qilsa, strategik kompetensiya suhbat davomida to'g'ri reaksiya ko'rsatish va til yetishmovchiligini to'ldira olish qobiliyatini bildiradi. Ijtimoiy-madaniy kompetensiya esa muloqotda madaniy kontekstni hisobga olish, madaniyatlararo muomala qoidalarini tushunish va ularga moslashish imkonini beradi. Ushbu komponentlar birgalikda shaxsning chet tilida to'liq va samarali muloqot qila olish salohiyatini rivojlantiradi.

Bizning tadqiqotimizdagi keyingi vazifa bo'lib aniqlangan pedagogik shart-sharoitlarga asoslanadigan va oliy ta'lim muassasasi talabalarining integrativ yondashuv asosida o'qitish sifatini oshirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonni modellashtirish hisoblanadi(3-rasm). Ushbu model muammoli topshiriqlar asosida tuzilgan bo'lib, maqsadli, kontseptual, mazmunli-jarayonli, texnologik va natijaviy-baholovchi bloklardan iborat. Ijtimoiy-maqsadli blok – bu kompetent pedagoglarni tayyorlash bo'yicha mavjud ijtimoiy buyurtma va ularning chet tilidagi ta'limining asosiy maqsadi bilan ifodalanadi. Ta'lim jarayonini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash, metodologik yondashuvlar va tamoyillarni aniqlash va o'quv kompetensiyalarining shakllanish mexanizmini tushuntirish, pedagogik shart-sharoitlarni belgilash modelning kontseptual asosini tashkil etadi. Mazmunli-jarayonli blok dissertatsiya modelining markaziy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u o'quv jarayonida qo'llaniladigan til materiali, madaniy kontekstlar, nutq faoliyat turlari va kommunikativ vazifalarning integratsiyasini ta'minlaydi.

Talabalarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan model diskursga mos interaktiv o'quv jarayonini tashkil etish orqali yangidan takomillashtirilgan. Mazkur modelda talabalarining kognitiv va reflektiv faoliyatini faollashtiruvchi intersemiotik materiallardan — ya'ni matn, tasvir, audio-vizual va raqamli signallar uyg'unligidan samarali foydalanish ko'zda tutiladi. Bunday multimodal yondashuv lingvistik-semantik tarkibni aniqlashtirish, ma'no hosil qilish



**3-rasm. Intensiv ta'lim texnologiyasi asosida kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish modeli**

jarayonini chuqurlashtirish hamda talabalarning affilyativ ehtiyojlarini — guruhga mansublik, hamkorlik va o‘zaro muloqotga ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Natijada kommunikativ kompetensiya diskursiy ko‘nikmalar, multimodal interpretatsiya, o‘zaro ta’sir strategiyalari va emotsional-intellektual faollikning yaxlit integratsiyasi asosida rivojlantiriladi.

Modelda intermodallik va madaniyatlararo integratsiyaga asoslangan texnologik blokni kiritish zamonaviy ta’lim talablariga javob beruvchi, innovatsion yondashuv sifatida e’tiborga loyiqdir. Model samaradorligini aniqlash, uning amaliy qo‘llanishi natijasida shakllangan kompetensiyalar darajasini baholash va tahlil qilish modelning diagnostik blokiga asosiy vazifa sifatida yuklatiladi.

Zamonaviy til o‘qitish metodikasi global kommunikatsiya, madaniyatlararo muloqot va axborot almashinuvi sharoitida til o‘rgatuvchi yondashuvlarning yangilanishini taqozo etmoqda. Shunday metodologik yo‘nalishlardan eng samaralilari sifatida kommunikativ va integrativ yondashuvlar ajralib turadi. Ularning har biri o‘ziga xos didaktik tamoyillar, o‘quv maqsadlari va metodik vositalar bilan talabanning ingliz tilidagi kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasi raqamli kommunikativ muhit va ta’limiy texnologiyalarni integratsiya qilish orqali shaxsning muloqot faolligini oshirishga yo‘naltirilgan holda takomillashtirilgan. Ushbu yondashuv madaniy kontekstda fikrlashni va dialogik muloqotni sinxron rivojlantirishni, nutq variativligiga asoslangan sotsiolingvistik ko‘nikmalarni o‘quv jarayoniga birlashtirish orqali funksional mazmuni chuqurlashtirishni ta’minlaydi. Natijada talabalarda turli kommunikativ vaziyatlarga moslashuvchan, pragmatik jihatdan to‘g‘ri va madaniy nuqtayi nazardan mos ravishda muloqot olib borish qobiliyati mustahkamlanadi. Masalan: “Situational Rephrasing Dialogue”

Aim: Strengthen sociolinguistic flexibility and dialogic competence.

Task: Students transform the same message for two different contexts at a B2 level.

Base message:

“I think we need to discuss this problem together.”

Student output (B2):

Formal variant:

